

## XITOY XALQ RESPUBLIKASI OLIY TA'LIMIDAGI RAQAMLI PLATFORMALAR – O'ZBEKISTON TA'LIM TIZMI UCHUN INNOVATION MODEL



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-62-66>

*Razzaqov Muzaffar Mehroj o'g'li,*  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti Xalqaro huquq fakulteti  
3-bosqich talabasi  
[razzaqovmuzaffar01@gmail.com](mailto:razzaqovmuzaffar01@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: Zebo Shamsiddinova*  
“Sharq tillari kafedrasi” o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi raqamli platformalar, universitetlardagi darslarning onlayn shakllarini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida qo'llash mavzusi yoritilgan. Shuningdek, mazkur maqolada muallif tomonida qo'shimcha taklif ham kiritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** onlayn platformalar, Coursera darslari, icousre kurslari, Xuetang platformasi, raqamli universitet, onlayn ta'lim, online darslar.

## ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ — ИННОВАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются цифровые платформы в системе высшего образования Китайской Народной Республики, а также возможности применения онлайн-форм обучения университетских занятий в системе высшего образования Республики Узбекистан. Кроме того, в данной статье автором также выдвинуты дополнительные предложения.

**Ключевые слова:** онлайн-платформы, курсы Coursera, курсы iCoursre, платформа Xuetang, цифровой университет, онлайн-образование, онлайн-занятия.

## DIGITAL PLATFORMS IN HIGHER EDUCATION OF THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA — AN INNOVATIVE MODEL FOR UZBEKISTAN'S EDUCATION SYSTEM

**Abstract:** This article examines digital platforms in the higher education system of the People's Republic of China and explores the possibilities of applying

*online formats of university courses within the higher education system of the Republic of Uzbekistan. In addition, this article also presents additional proposals put forward by the author.*

**Keywords:** *online platforms, Coursera courses, iCourse courses, Xuetaang platform, digital university, online education, online classes.*

## KIRISH

Hozirgi kunda butun dunyo hayotning har bir sohasida onlayn tizimdan foydalanmoqda. Bu tizimning foydali jihatlari qolganlariga nisbatan ancha ko‘proq va samaraliroq hisoblanadi. Eng muhimi, onlayn tizimda ortiqcha ovvoragarchilik va vaqt bilan bog‘liq muammolarga barham beriladi. Ta‘lim tizimida ham onlayn dasturni yo‘lga qo‘yish bir qancha muammolarni hal etadi va talabalarning ilm salohiyatini oshirish uchun juda ham ko‘p imkoniyatlar yaratadi.

## Asosiy qism

Xitoy Xalq Respublikasi ta‘lim tizimi bilan butun dunyoga mashhur. Oliy ta‘lim yo‘nalishlarining barchasi bo‘yicha ham butun dunyo universitetlari reytingida Top 20 talikda turadi.<sup>1</sup> Bularga misol qilib **Pekin universiteti** hamda **Tsinghua universitetlarini** keltirishimiz mumkin. Xitoydagi Oliy ta‘lim muassasalari talabalar uchun yoki shu sohani o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun o‘zlarining onlayn darslarini maxsus platformalarga joylashtirishadi. Mazkur darslarni har bir talaba yoki o‘rganuvchi individual tarzda, istalgan vaqtda, o‘zi xohlagan joyda va qayta-qayta ko‘rish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, ushbu platformalarda, darslarni yuklab olish imkoniyati orqali yuklab olib, offlayn tarzda ham ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda reytingda **17 o‘rinda** turgan Tsinghua universitetini oladigan bo‘lsak, o‘zining “**XuetaangX**” platformasida univeristetdagi yo‘nalishlarning barchasidan darslarning onlayn versiyasini joylashtirgan. Masalan, geometriya, algebra, tarix yo‘nalishlari va hattoki til kurslari ham mavjud.<sup>2</sup> Ushbu platformadan foydalanish **Tsinghua univeristet** talabalari uchun bepul, qolgan barcha uchun esa pulli to‘liq yoki bepul tarzda cheklangan verisyasidan foydalanish imkoniyati beriladi. Bu platformadan, nafaqat Tsinghua universitetida tahsil olayotgan talabalar, balki butun dunyodagi istalgan inson ro‘yxatdan o‘tgan holda foydalanishi mumkin.


(**XuetaangX** platformasidagi **Tsinghua universiteti** sahifasi)

Mazkur ilovaning cheklangan versiyasida: darslarni yuklab olish imkoniyati bo‘lmasligi, kurs oxirida sertifikat berilmasligi, o‘qituvchi bilan muloqot

<sup>1</sup> <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>

<sup>2</sup> <https://www.tsinghua.edu.cn/en/info/1399/9841.htm>


bo‘lmasligi, faqatgina tayyorlangan videodarslarni ko‘rishi, ya’ni jonli o‘tiladigan darslarga kira olmasligi, bir kunda faqat bitta dars ko‘rish cheklovi kabilar belgilanishi mumkin.



Yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, bu platforma Tsinghua universiteti tomonidan asos solingan bo‘lsa ham, butun dunyo universitetlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishadi. Boshqa davlatdagi universitetlar yoki Xitoydagi universitetlar ham o‘zlarining online kurslarini taklif etib mazkur platformada joylashtirib borishadi. Universitetlar bo‘yicha butun dunyo reytingingida **14 o‘rinda** turgan **Pekin universiteti** ham **Tsinghua universiteti** bilan hamkorlikda **“XuetangX”** dasturiga o‘zining maxsus kurslarini joylaydi.

Pekin universiteti faqat **“XuetangX”** dasturi bilan cheklanib qolmasdan, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Stanford universiteti tomonidan asos solingan **“Coursera”** nomli maxsus dastur bilan ham hamkorlik qiladi. Ya’ni, **“XuetangX”** uchun tayyorlangan darslar **“Coursera”** ga joylanadi. Faqat joylanadigan darslar, tili bo‘yicha farqlanadi. **“XuetangX”** platformasidagi darslar xitoy tilida o‘rganuvchilar uchun, **“Coursera”** dagi onlayn darslar esa ingliz tilida o‘rganuvchilar uchun tayyorlanadi. Albatta, Tsinghua universiteti ham ingliz tilida content tayyorlaydi va **“Coursera” hamkorlikda** ishlab o‘rganuvchilarga Tsinghua universiteti tomonidan tayyorlangan ingliz tilidagi darslarni taklif etadi.

(Coursera platformasidagi Pekin universiteti sahifasi)



Pekin universitetida ham online darslarni taklif etadigan “**PKU academy**” nomli maxsus platforma mavjud. Ushbu dasturda ham universitet tomonida online kurslar taklif etiladi. Mazkur, dasturda ham Pekin universiteti talabalari uchun bepul, qolganlar uchun esa pulli to‘liq yoki bepul cheklangan versiyalaridan foydalanish mumkin.

Shu va shunga o‘xshash boshqa dasturlar orqali Xitoyda talabalar va talab bo‘lmagan yoshlar, hattoki maktab o‘quvchilari ham universitet darslarini istalgan joyda, istalgan vaqta, xohlagancha o‘rganish imkoniyatini bermoqda. Mazkur, tizim O‘zbekistonga olib kiriladigan bo‘lsa, Oliy ta’lim tizimida albatta katta o‘zgarishlar bo‘ladi. Talabalarining o‘zlashtirishida sezilarli o‘sish kuzatiladi, o‘z sohasining yetuk kadrlari yetishib chiqadi. Sababi, darsda o‘tilgan ma’ruzani, yengil, oson tarzda tuhsuntirilgan formatdagi video darsni bir necha marta ko‘rish orqali mavzuni qiynalmasdan tushunish mumkin bo‘ladi va bundan faqatgina universitet talabasi emas maktabdagi yuqori sinf o‘quvchilari ham foydalansa bo‘ladi.

O‘zbekistonda ham, nufuzli hisoblangan Jahon qitʼisodiyoti va diplomatiya universiteti yoki Toshkent davlat yuridik univeristeti tomonidan maxsus platforma tashkil etiladigan bo‘lsa, oliy ta’limda o‘zlarida mavjud bo‘lgan yo‘nalishlardan onlayn darsliklar, videodarslar tayyorlab, o‘zlarida mavjud bo‘lmagan sohalarda esa boshqa universitetlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borib, O‘zbekiston hududida ham universitet ta’limini Xitoydagi kabi o‘z talabalari uchun bepul, boshqa shaxslar esa pullik yoki bepul lekin cheklangan shaklini taqdim etish imkoniyati tug‘iladi.

O‘zbekistonda Youtube <sup>3</sup> platformasi orqali ham univeristetlarning videodarslarini tashkil etish mumkin. Chunki, YouTube O‘zbekistonda bloklanmagan. Xitoy Xalq Respublikasida esa 2009-yilda Youtube rasmiy ravishda

<sup>3</sup> <https://www.youtube.com/>

hukumat tomonidan bloklangan. <sup>4</sup> Hozirgi kunda, O‘zbekistondagi barcha universitetlarning rasmiy Youtube kanali mavjud. Mazkur YouTube sahifasida, universitet haqida ma’lumotlar, maxsus tadbirlar haqida videolar joylab boriladi. Mening taklifim shunday. Univeritetlar tomonidan, o‘zlarining YouTube sahifasiga maxsus kategoriya asosida, dastlab har bir fakultet uchun alohida rasmiy YouTube kanali, keyin esa kanal ichida 1-4 kurslar uchun hamda magistrantlar uchun maxsus bo‘limlar tashkil etiladi. So‘ngra, universitetda bo‘lib o‘tadigan har bir fan ma’ruzalari video shaklda yozib olinadi. Yozib olingan ma’ruzalar esa shu fan qaysi kurs uchun o‘tilsa, o‘sha kursning bo‘limiga yuklanadi. Bu videodarslarning hech qaysi biri maxsus tarzda tayyorlanmaydi, faqat ma’ruza qanday tartibda o‘tilsa shu videoga yozib olinadi va YouTube’ga tegishli bo‘limga yuklanadi. Maxsus kurslar, seminar darslari yoki jonli darslar, shuningdek shu kursni o‘qib chiqadigan bo‘lsa maxsus sertifikatlar esa alohida platformada amalga oshiriladi. YouTube platformasiga joylanadigan videodarslar esa talaba uchun tushunmagan mavzusini tushunguniga qadar qayta eshitib olish, xohlagan joyida darsni ko‘rish imkoniyatini beradi.

### **XULOSA**

Umuman olganda darslarning video shaklda bo‘lishini hech qanday yomon tomoni yo‘q, aksincha video shaklda yozib olingan ma’ruzalar talabalar uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib qoladi. Insonlarning ko‘rib va eshitib o‘rganishi, o‘qib o‘rgangan bilimidan kuchliroq, yodda qoladigan va oson o‘rganiladigan tizimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA WEB-SAHIFALAR:**

1. Zebo Fazliddinova Shamsiddinova. XITOY MADANIYATIDA VAQT MODEL TUSHUNCHASINING TILDA AKS ETISH XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES".Volume 1. Issue 4. Pages 84-91;
2. Butunjahon universitetlar reytingi - <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>;
3. Tsinghua universiteti tomonida XuetaangX platformasi ishga tushirilgan -<https://www.tsinghua.edu.cn/en/info/1399/9841.htm>;
4. YouTube ilovasi - <https://www.youtube.com/>
5. Xitoy Xalq Respublikasida Youtube platformasining bloklanishi - <https://www.theguardian.com/world/2009/mar/25/china-blocks-youtube> .

<sup>4</sup> <https://www.theguardian.com/world/2009/mar/25/china-blocks-youtube>